

## TURIZMNING RIVOJLANISH TARIXI

**Mirzakamolov Umidjon Kozimjon o'g'li***Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti Gid hanrohligi va tarjimonlik faoliyati magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada turizmning rivojlanish tarixi, turizmning asosiy rivojlanishida chiroyli, manzalari joylar va mamalakatimizda turizmning rivojlanishi haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Turizm, xalqlar, sayohat, tarix, rivojlanish, muntazam, obidalar, savdo*

Ayrim xalqlar uchun sayohat bu asrlar davomida yashash joyining tabiiy iqlim sharoitlari ta'sirida shakllangan turmush tarzidir. Bunday xalqlarga misol qilib ko'chmanchilar – belujlar, badaviylar, lo'lilar, shuningdek, qochoqlar va majburiy ko'chuvchilarni ko'rsatish mumkin. Ko'chmanchilar poda-poda mollar bilan turli xil yaylovlar bo'ylab ko'chib yuradilar va mamlakatlar chegaralarini pisand qilmaydilar. Masalan, belujlar muntazam ravishda Pokistondan Afg'onistonga o'tib yuradilar. Ko'plab kishilar ish qidirib sayohat qiladilar. Mavsumiy qishloq xo'jaligi tufayli ishchilar har yili bir joydan boshqa joyga ko'chib boradilar, AQSHning shimoliy qismiga Meksikadan ko'plab odamlar daladan hosil yig'ishga boradilar.

Ko'p asrlik tarix guvohki, insonga savdoni rivojlantirish, yangi erlarni ochish va o'zlashtirish, resurslar va yangi transport yo'llarini izlab topish maqsadida jahon bo'ylab sayohat qilish xos bo'lgan. Sivilizatsiyamizning rivojlanish davri unchalik katta bo'lmay, besh ming yilga yaqin hisoblanadi, biroq faqat yaqin o'tmishdagi sayohatlar haqidagi hikoya va tasvirlargina saqlanib qolingan. Tarixdan yangi qit'a va erlarni, xalqlar va tabiiy hodisalarni ochgan, o'ziga xos geografik tizimlarni asoslab bergan buyuk sayohatchilarning nomlari bizga ma'lum.

Sayohatchilikning rivojlanishiga ziyoratchilar ham munosib hissa qo'shganlar. Turli din vakillari bo'lgan ziyoratchilar o'z dinlarini yoyish va muqaddas joylarga borib ziyorat qilish maqsadida uzoq va mashaqqatli sayohatlarni amalga oshirganlar. Salb yurishlari o'rta asrlarning mashhur hodisalari sifatida qayd etiladi. Hozirgi paytda ziyoratchilik diniy turizmning asosini tashkil qilib, o'z faoliyatida keng miqyosga ega hisoblanadi. Bunga misol tariqasida islom dini vakillarining muqaddas Makkai mukarrama shahriga hajga borishi yoki xristianlarning Quddus shahriga ziyorat qilishlarini keltirib o'tish kifoya.

Sayohatlarning katta qismi yangi savdo yo'llarini, yangi yer va mamlakatlarni ochish maqsadida amalga oshirilgan. Buyuk arab olimi va sayohatchi Ibn Battuta (Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh al-Lavati at-Tanji) (1304/1368) 21 yoshidan sayohat qilishni boshlagan va sharqning barcha mamlakatlarini (70 ming chaqirimdan ortiq) piyoda bosib o'tgan, Shimoliy Afrika mamlakatlari, Xitoy va Hindistonda bo'lgan. U o'zining mashhur «Rixle» deb nomlangan asarida ko'plab mamlakat va savdo yo'llarining geografik nomlarini, xalqlarning urf-odatlarini batafsil tasvirlab bergan. Italiyalik savdogar Marko Polo (1254-1324) 1271/1295 yillarda Xitoyga safar uyushtirib, u erda 17 yil istiqomat qilgan va bu mamlakat haqidagi kamyob ma'lumotlarni to'plab, o'zining kitobida aks ettirgan.

*O'zbekistonda turizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi*

Sayohatlarning kelib chiqish va rivojlanish tarixi er kurrasidagi barcha insonlarning qadimgi ijtimoiy mehnat va turmush madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Insonlar mehnat qurolini yasash, olov yoqishni kashf etgan davrlarda yovvoyi hayvonlarni ov qilish yirtqich-vahshiy hayvonlarga qarshi kurashish jarayonlarida qir-adirlar, tog'lar osha yurish-yugurish, tez oqar suvlardan kechib o'tish, yaylovlar, go'zal manzarali joylarda dam olish, tunab qolish bir necha kunlar poylab yotish kabi hayotiy murakkab faoliyatlarni bajarishga to'g'ri kelgan.

Go'zal manzarali joylar va hayvonlar, parrandalarni ov qilishga qulay bo'lgan joylarga turli xil belgilar (toshlarga chizib rasm solish va h.k.) qo'yib ketish odatga aylangan. Shu asosda tur-turizm (belgi, o'tish joyi, sayohat manzili va h.k.) iborasi va shu sohada xilma-xil madaniy tadbirlar tashkil qilish vujudga kelgan. Ular haqida toshlar qoyasi, g'orlar ichida chizilgan rasmlar, arxeologik qazilmalarda topilgan buyumlar, xalqaro turizm tashkilotlarining so'nggi yillarda nashr etgan ko'pgina yozma manbalari guvohlik beradi.

Yuqorida bayon etilgan voqe'liklar faoliyatlar, manbalar O'zbekiston muhitida mavjud bo'lgan Chotqol-Pskom tizma tog'lari, Nurota va Turkiston-Zarafshon tizma tog'laridagi g'oya toshlar, Amir Temur g'ori va boshqa joylardagi chizilgan rasmlar bunga guvoh desa bo'ladi. Ayniqsa Samarqand shahrining janubidagi (40 km) Omonqo'ton g'oridan topilgan odam suyaklari, ba'zi bir ashyolar bundan 40 ming yillar avval yashagan odamlarning hayoti va sayohatlaridan dalolat beradi.

O'zbekiston va uning atrofidagi xududlarda sayohatlarning mavjudligi, davrlar osha rivojlanishi, ularning mazmun va shakllari boyishi Buyuk ipak yo'li bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston xalqaro ekosan-turizm tashkiloti tomonidan 1995 yildan buyon har yili Toshkentda xalqaro turizm anjumani va ko'rgazmasining an'anaviy o'tkazib kelinishi tufayli sayohatlarning rivojlanish tarixidagi yangi qirralarini ochib bermoqda.

Turizmning shakllari va turlari asosan sobiq Sovetlar hokimiyati davrida ancha kengaydi. Bunda tarixiy-madaniy shaharlarga sayr (ekskursiya) o'tkazish, tog'lar, cho'llar va qadimgi shaharlardan qolgan harobalarni kavlash-o'rganish (ekspeditsiya) kabi muhim ishlar amalga oshirildi. Eng muhimi aholinig ayniqsa ishchi va o'quvchi yoshlarning sog'ligini yaxshilash, tabiat va tarixiy-madaniy obidalarni o'rganish bo'yicha ko'p sayohatlar o'tkazildi. Bu yo'lda turizm bo'yicha kadrlar tayyorlash (instruktorlar, ekskursovodlar, murabbiylar va h.k.) asosiy vazifalardan biri qilib qo'yildi.

Ma'lumki, mamlakatni industrilashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va uni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida tabiat boyliklarini qidirib topish va ulardan samarali foydalanish, eng muhim vazifalardan biri edi. O'lkani o'rganish va qazilma boyliklarni qidirish ishlari mamlakatimizning ko'pgina joylarida intensiv ravishda olib borildi. Ana [shu umumxalq ishida yoshlar](#), o'quvchilar ham faol ishtirok etdilar. Ular mutaxassislar bilan birgalikda tabiat sirlarini ochish, o'lkani o'rganish, qazilma boyliklarini topish va shunga o'xshash zarur sohalarda amaliy yordam berdilar, uzoq masofalarga yurish, tog' cho'qqilariga chiqish, zarur anjomlarni manzilga olib borish, karta va kompas bilan ishlash kabi malakalarni o'zlashtirdilar va ularni ommalashtirdilar. Bu jarayonlar turizmning yanada takomillashtirilishiga asos bo'ldi. Ayniqsa harbiy kadrlar tayyorlash tog'li va o'rmonli chegaralarda har tomonlama xushyorlikni oshirishda turizm katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, 30-yillarda alpinizmga e'tibor kuchaygan edi. Alpinistlar Pomir, Xon-Tangri va Kommunizm cho'qqilariga chiqish va uni zabt etishga bir necha bor urindilar. 1933 yilda Aleksandr Malenkov boshchiligidagi 7 alpinist qish sharoitida Mestiyskiy va Becho dovonlaridan oshib o'tishga muvaffaq bo'ldilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizning turizm salohiyati oshib borayotganligini. O'zbekistonda ichki sayyohlarning umumiy soni 2016 yildagi 8,8 milliondan 2019 yilda 14,7 millionga, 2021 yilda esa 15 milliondan oshganligidan bilish mumkin.

O'zbekistonda tarixiy yodgorliklar, ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolar kabi 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu sababli, keyingi yillarda davlatimiz tomonidan mazkur yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha ko'plab normativhuquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199 sonli Farmoni ga binoan Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi tashkil etildi. Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ'ib qilish davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish, qo'riqlanadigan tegralarini belgilash hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish kabilar agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilanganligi mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni yanada rivojlantirishga oid tizimli ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borish muhim.

O'zbekistonning turistik salohiyatini qo'llab-quvvatlashda UNWTOning rahnamoligida o'tadigan, Toshkentdagi xalqaro "Ipak yo'lidagi turizm" yarmarkasining ham ahamiyati juda katta. Bu yarmarkaning asosiy maqsadi turizm sohasidagi o'zbek hamda horij mutahassislarini birlashtirish, ular o'rtasida professional hamkorlikni yanada kengaytirishdan iborat. Bugungi kunga kelib bu xalqaro yarmarka Markaziy Osiyodagi eng yirik ko'rgazmalardan biri sifatida nom qozongan.

Xulosa

Umumta'lim maktablar, [akademik litseylar](#), kasb-xunar kollejlari o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining o'quvchi-yoshlari, talabalari hamda ishchi-mehnatkash yoshlar, ziyolilar, barcha sohada xizmat faoliyat ko'rsatuvchi kishilar turizmning ijtimoiy-madaniy va tarixiy obidalarga sayr-sayohatlar uyushtirishlari maqsadga muvofiqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html>
2. <https://www.uzreport.news/society/o-zbekistonda-turizmning-tiklanishi-uch-bosqichda-amalga-oshiriladi>
3. Tulakov U. turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari.
4. [http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/49\\_Erkayeva.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/49_Erkayeva.pdf)
5. <http://hozir.org/1-reja-ozbekistonda-turizmning-paydo-bolishi-va-rivojlanishi.html?page=3>